

## “QATTIQ JISMLARNING ELEKTR XOSSALARI” MAVZUSINI DARSLARDA QO’LLASH

Amonova Ruxsora Hakim qizi

Navoiy viloyati Navbahor tumani

Navbahor kasb-hunar maktabi o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1064518>

**Annotatsiya.** O`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda qattiq jismlar fizikasining hozirgi paytdagi istiqbollari to`g`risida tushunchalar yaxshi natija beradi. Mazkur maqolada «Qattiq jismlar xossalari» xususida ayrim ma’lumotlar berishga harakat qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Kristal, metatutg‘un, amorf jismlar, atom.

### APPLICATION OF THE SUBJECT "ELECTRICAL PROPERTIES OF SOLIDS" IN LESSONS

**Abstract.** Understanding the current state of physics in solids is a good way to help students develop a scientific outlook. This article has tried to give some information about "Properties of Solids".

**Key words:** Crystalline, metastable, amorphous bodies, atom.

### ПРИМЕНЕНИЕ ПРЕДМЕТА «ЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ТВЕРДЫХ ТВЕРДЫХ ТЕЛА» НА УРОКАХ

**Аннотация.** Понимание текущего состояния физики твердых тел — хороший способ помочь учащимся развить научное мировоззрение. В этой статье мы попытались дать некоторую информацию о «Свойствах твердых тел».

**Ключевые слова:** Кристаллические, метастабильные, аморфные тела, атом

Qattiq jismlar (metallar, yarim o’tkazgichlar va dielektriklar) hozirgi zamon elektronika va asbobsozlik sanoatining asosiy elementlarii hisoblanadi. Bu elementlar asosida ishlaydigan zamonaviy asboblarning ishlash prinsip va konstruksiyasi eng avvalo, qattiq jismlaming fizik xossalari bilan bevosita bog‘liq. Qattiq jismlarining tuzilishi, qattiq jismlarning elektr xossalari, qo’llanish sohalarini o’rganish, elektronika va asbobsozlik sohasida qattiq jismlar bilan bog‘liq bo‘lgan fundamental va amaliy masalalami yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qattiq jismlami elektr o’tkazuvchanligi bo‘yicha klassifikasiyalash. Zonalarning elektronlar bilan to‘ldirilishi. Metallar, yarim o’tkazgichlar, dielektriklar. Yarim o’tkazgichlarda elektr o’tkazuvchanlik.

“Qattiq jismlarning xossalari” mavzusini o‘qitishda didaktik materiallarning qo’llanilishi.

Ta’lim jarayoni qonuniyatlari ya’ni fizikaviy qonuniyatlar va uni xossalarni o’rganishda hamda tadbiq etishda o‘quv – biluv faoliyatini tadqiq qilishga yordam beruvchi barcha zarur vositalar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar o‘qitishning didaktik materiallarni tashkil qiladi.

Bu borada biz didaktik materiallardan foydalanishda quyidagicha ko‘rgazmali vositalardan foydalananamiz.

Didaktik materiallarga quyidagilar kiradi.

1. Ko‘rgazmali qurollar:

a) Chizmalar

b) Rasmlar

2. Texnik vositalar va kompyuter texnologiyasi:

a) Kompyuter (proektor)

b) Kodoskop

s) Virtual stendlar

d) Elektron darslik

3. Namoyishlar.

4. Tarqatma materiallar.

a) Savolnomalar

b) Testlar

Dars ishlanmasi

Dars mavzusi: “**Qattiq jismlarning xossalari**”

Dars vaqt: 80 minut

Dars rejasi:

Dars bosqichlari: (Minut)

1.Tashkiliy qism -5

2.Manaviy -ma'rifiy qism -5

3.Yangi mavzu bayoni- 25

Qattiq jism — moddaning shakli turg ‘un agregat holati. Bu holatda modda atomlarining issiqlik harakati ularning muvozanat vaziyatlari atrofida kichik tebranishlaridan iborat bo ‘ladi. Kristall va amorf qattiq jismlar mavjud. Kristallarda atomlarning muvozanat vaziyatlari fazoda davriy joylashadi. Amorf jismlarda atomlar tartibsiz joylashgan nuqtalar atrofida tebranadi. Qattiq jismning turg ‘un (eng kichik ichki energiyali) holati kristall holatdir. Termodinamik nuqtai nazardan amorf jism metaturg‘un holatda bo ‘ladi va vaqt o‘tishi bilan kristallanishi kerak. Tabiatdagi barcha moddalar (suyuq geliydan tashqari) atm. bosimida va  $T>0$  K trada qotadi. Qattiq jism xossalarni uning atom molekulyar tuzilishini va zarralari harakatini bilgan holda tushuntirish mumkin. Qattiq jismning makroskopik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va tartiblashtirish 17-asrdan boshlangan. Qattiq jismga mexanik kuch, yorug ‘lik, elektr va magnit maydon va h.k.ning ta’sirini ifodalovchi bir qator empirik qonunlar ochildi:

-Guk qonuni (1660), - Dyulong va Ptı qonuni (1918), -Om qonuni (1826), -Videman — Frans qonuni (1835) va boshqalar. Qattiq jism atomlar, molekulalar va ionlardan tuziladi. Qattiq jismning tuzilishi atomlar orasidagi ta’sir kuchiga bog‘liq. Bir xil atomlarning o‘zi turli strukturalarni hosil qilishi mumkin (kul rang va oq qalay, grafit va olmos va h.k.). Tashqi bosim yordamida atomlararo masofani o‘zgartirib, Qattiq jismning kristall tuzilishini va xossalarni tubdan o ‘zgartirish mumkin. Ko‘pgina yarimo‘tkazgichlar bosim ostida metall holatga o‘tadi (oltingugurt 8 120000 atm. bosimi ostida metallga aylanadi). Tashqi bosim tufayli 1 atomga to‘g‘ri keladigan hajm atomning odatdagisi hajmidan kichik bo‘lib qolganda atomlar o‘z individualligini yo‘qotadi va modsa o‘ta siqilgan electron yadroviy plazmaga aylanadi. Moddaning bunday holatini o‘rganish, xususan, yulduzlarning strukturasini tushunish uchun juda muhim. Qattiq jismning tuzilishi va xossalarning o‘zgarishi (fazaviy o ‘tishlar), temperatura o‘zgarganda, magnit maydon ta’sirida va boshqalar tashqi ta’sirlar natijasida ham yuz berishi mumkin.

Bog‘lanishlarning turi bo‘yicha Qattiq jism bir-biridan elektronlarning fazoviy taqsimoti bilan farq qiladigan 5 sinfga ajraladi:

1) ionli kristallarda (№S1, KS1 va boshqalar) ionlar orasida asosan elektrostatik tortishish kuchlari ta’sir etadi;

2) kovalent bog‘lanishli kristallarda (olmos, Oye, 81) qo‘shni atomlarning valent elektronlari umumiylashgan bo‘ladi. Kristall ulkan molekulaga o‘xshaydi;

3) ko‘pchilik metallarda bog‘lanish energiyasi harakatlanayotgan elektronlarning ion asos bilan o‘zaro ta’siri tufayli hosil bo‘ladi (metall bog‘lanish);

4) molekulyar kristallarda molekulalar ularning dinamik qutblanishi tufayli paydo bo‘ladigan zaif elektrostatik kuchlar (VanderVaals kuchlari) yordamida bog‘lanadi;

5) vodorod bog‘lanishli kristallarda vodorodning har bir atomi tortishish kuchlari yordamida bir vaqtning o‘zida 2 ta boshqa atom bilan bog‘lanadi. Bog‘lanishlar turi bo‘yicha tasnif shartli bo‘lib, ko‘pgina moddalarda turli bog‘lanishlarning kombinatsiyasi kuzatiladi.

4.O’tilgan mavzuni mustahkamlash uchun savol- javoblar-10

5.Uyga vazifa berish- 5

Darsning maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarga yangi mavzuni to‘liq tushuntirib berish.

b) Tarbiyaviy maqsadi: O‘quvchilarga barkamol avlod ruhida tarbiyalash.

Dars davomida O‘quvchilarga axloqiy- ma’naviy elementlarni singdirish;

s) Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarga yangi bilim berish

Dars materiallari va jihozlari

1. O‘quvchilar uchun fizika kitobi

2. Doska, bo‘r

3. Darsga tegishli bo‘lgan plakatlar (4) va slaydlar (2) tarqatma materiallar.

4. Kompyuter, proyektor, kodoskop va elektron darslik.

Asosiy tushuncha va atamalar.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *muammoli ta’lim, aqliy hujum, munozara, o‘z-ozini nazorat.*

## REREFERENCES

1. S.Q.Axrоров , T.U.Toshboyev, S.N.Srajev “Qattiq jismlar fizikasi” fanidan masalalar to’plami. Uslubiy qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2010. - 45
2. Umumiyo‘rta ta’lim maktablari uchun fizika darsligi.
3. [www.Zivo.net](http://www.Zivo.net)